SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 3 - iyul 159-9-128-Q/23 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumani umumfoydalanuvda bo‘lgan 4K643B yo‘lining kesishgan chorrahasiga yo‘l harakati qoidalarining 3.27 “Toxtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida.

Sirdaryo tumani hududida transport vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining oldini olish transport vositalarining harakatlanishini tartibga solish borasida tuman hududidan o‘tuvchi yo‘llarning ayrim joylariga zaruriy yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida, ushbu orqali yo‘l harakatini tartibga solish hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2013-yil 10-apreldagi O‘RQ—348-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati” to‘g‘risidagi qarorining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo tumani YFUK 2023 yil 17 aprellagi “Sirdaryo tuman umumfoydalanuvdagi 4K643B yo‘lining, “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida”gi 02/69-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tuman yo‘nalishida bo‘lgan avtomobil yo‘llarining 4K643B yo‘lining kesishgan chorrahasiga yo‘l harakati qoidalarining 3.27 “Toxtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. Sirdaryo tumani Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari Sh.Aliboyev, Sirdaryo tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi raxbari B.Bektemirov, tuman Qurilish va uy-joy komunal xo‘jaligi bo‘limi

boshlig‘i v.v.b Sh.Eshboyevlarga vakolatlari doirasida kelishuv asosida yo‘l belgilarini me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan ko‘rinishda, balandlikda o‘rnatilishini ta’minlash;

Yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb saytiga (S.Jo‘raboyev) joylashtirilsin hamda “Sirdaryo” gazetasi bosh muharriri (A.Burliyev) ushbu qaror matnini gazetaasida chop etilishi vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **B.Mirzaqulov**